

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.I.Rustamova	
Abdulla Qahhorning "Sarob" romanida detallar funksiyasi va dinamikasi	770
G.H.Oxunova	
Badiiy obraz borliqni anglash omili sifatida (Isajon Sulton hikoyalari misolida)	773
G.M.Oripova, F.A.Rahmataliyeva	
Xokku she'riy janrida inson va tabiat tasviri	778
G.Muhammadjonova	
Erkin Vohidovning hajviy asarlarida davr muammolari	782
Sh.D.Maxmidjonov	
Badiiy nutq tiplari va qahramon ruhiy olami talqini (Tohir Malikning asarlari misolida)	787
M.M.Xamidov	
O'zbek adabiyotida tarixiy obraz va uning ifoda usuli	791
O.A.Ahmadjonova, Sh.D.Ma'murova	
Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasida til o'rganish masalasi va milliy til qadri	795
X.A.Abdulxamidova	
Isajon Sulton romanlarida inson xronotop sifatida	799
J.B.Sayidolimov	
"Makorim ul-axloq" agiografik asar namunasi	803
G.M.Oripova, G.G'.Axmadaliyeva	
Said Ahmadning hikoyanavislik mahorati ("Qorako'z majnun" hikoyasi misolida)	808
I.S.Mannopov, B.D.Rajavaliyev	
"Devoni hikmat"da ishq va oshiqlik talqini	812
S.F.Komilova	
Xalq dostonlarida do'stlik obrazi talqini	817
O.A.Ahmadjonova	
Asqad Muxtorning ayollar psixologiyasini yoritishda uslubiy o'ziga xosligi	820
A.A.Abduraxmonov	
O'zbek lirikasida nurning poetik funksiyasi	824
X.A.Abdulxamidova, G.Sh.Shodiyeva	
"Kutilgan kun" hikoyasida badiiy psixologizm	828

TILSHUNOSLIK

S.N.Fazildinova	
"Farhod va Shirin" dostoni nasriy bayonidagi tasvir vositalarning ifodalanishi	831
N.K.Ergasheva	
Goals and objectives of the training practice	835
O.A.Axmedova	
Nofilologik oliy o'quv yurtlarida ingliz tili terminalogiyasini o'qitishning nazariy asoslari	838
Sh.B.Karimova	
O'zbek tilida kvantitativlikning lug'aviy ifodasi	841
A.U.Akhmedova	
Challenges of using only traditional methods in teaching foreign languages	844
A.U.Akhmedova	
The effects of contemporary teaching methods in teaching foreign languages	850
D.Ganieva, F.Khamidov	
The comparative analysis of internet discourse in Uzbek, Russian and English languages	855
Ш.Аскарова	
Сущность языковой интерференции при изучении Немецкого языка	859
S.Kh.Azimova	
The stages of development of the theory of intercultural pragmatics in linguistics	863
E.B.Yagyaeva	
Talabalar mustaqil ta'limining mohiyati, tuzilmasi va vazifasi	867
E.B.Yagyaeva	
Ingliz tili o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar	870



UO'K: 821.512.133.09-1

SAID AHMADNING HIKOYANAVISLIK MAHORATI

("Qorako'z Majnun" hikoyasi misolida)

SAEED AHMAD'S SKILLS IN STORYTELLING

(Based on the story "Korakuz Majnun")

НАВЫКИ САИДА АХМАДА В ПОВЕСТВОВАНИИ

(По рассказу "Коракуз Мажнун")

Oripova Gulnoza Murodilovna¹¹Farg'ona davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**Axmadaliyeva Gulira'no G'iyosiddin qizi²**²Farg'ona davlat universiteti talabasi**Annotatsiya**

Maqolada Said Ahmadning o'zbek hikoyachiligidagi mahorati "Qorako'z Majnun" hikoyasi tahlili asosida yoritib berilgan. Hikoyadagi kompozitsiya elementlari: epigraf, peyzaj, portret kabilarning yozuvchi badiiy g'oyasini ifodalashdagi ahamiyati asoslangan. Adibning individual uslubi va xarakter yaratish mahorati, davr muammolarini ifodalash yo'sini tadqiq etilgan.

Abstrakt

The article covered Saeed Ahmad's skill in Uzbek storytelling based on an analysis of the story of "Qorakoz Majnun". The elements of composition in the story are based on the importance of such as: Epigraphy, landscape, portrait in expressing the artistic idea of the writer. Adib's individual style and skill in character creation, the way of representing the problems of the era, have been researched.

Аннотация

В статье освещается мастерство Саида Ахмада в узбекском сказительстве на основе анализа рассказа "Коракуз Мажнун". В основе лежит значение композиционных элементов в рассказе: эпиграфа, пейзажа, портрета в выражении художественной идеи писателя. Исследованы индивидуальный стиль и умение писателя создавать характер, способ выражения проблем эпохи.

Kalit so'zlar: hikoya janri, xarakter, badiiy g'oya, peyzaj tasviri, milliy qadriyatlar.**Key words:** story genre, character, artistic idea, landscape image, national values.**Ключевые слова:** жанр рассказа, характер, художественная идея, образ пейзажа, национальные ценности.**KIRISH**

Said Ahmad XX asr hikoyachiligi rivojiga muhim hissa qo'shgan iste'dodli adibdir. U nodir asarlari bilan milliy adabiyotimiz tarixida munosib o'rin egallagan. Yozuvchining barcha asarlarida umuminsoniy g'oyalar va qadriyatlar o'z ifodasini topgan. Adib hikoyalarning real hayotga daxldorligi, ijtimoiy masalalar bilan aloqadorligi uning suyumliligini oshiradi. Kitobxonning fikrini teranlashtirishi, to'g'ri qaror qabul qilishiga ko'maklashishi tufayli ham Said Ahmad hikoyalarning ohori to'kilmaydi, har bir zamonda ibrat namunasi bo'lib qolaveradi. Bugungi zamon kishisini chuqur o'yga toldiradigan, mushohada yuritishga undaydigan sara asarlari orasida "Qorako'z Majnun" hikoyasi g'oyaviy-badiiy jihatdan yetuk asardir. Ya'ni, bu hikoya, avvalo, mavzu va g'oyani ifodalash yo'sinidan, keyin esa uslub va badiiy ta'sirchanlik jihatidan qimmatlidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

"Asar yaratish kabi mushkul, og'ir ish dunyoda yo'qdir... Chuqur his etish, qalbning zo'r hayajoni, o'tkir fikr, fahm, ajoyib ilhom... yana ko'p xislatlar kerak", degan edi mahoratli yozuvchi Oybek. Said Ahmad shunday mushkul ishni maromiga yetkazib bajarganini "Qorako'z Majnun"

ADABIYOTSHUNOSLIK

hikoyasidan ham anglashimiz mumkin. Adibning asar yozish metodi o'z zamondoshi bo'lgan Abdulla Qahhor bilan o'xshashdir. Ikkisining ham ijtimoiy va axloqiy mavzularda yozilgan qisqa, ammo ta'sirchan hikoyalari syujeti, voqealar rivoji va eng asosiysi, yechimi jihatidan bir-biriga yaqindir. Ikki adib ham ko'p hollarda asarlarini o'quvchini fikrlashga undaydigan jumlar bilan yakunlaydi. Bundan tashqari, Said Ahmad va Abdulla Qahhor hikoyalarida sarlavha va epigraf tanlashda ham o'xshashlik sezamiz. Said Ahmadning kishini o'ylantiradigan nom tanlash xislati Abdulla Qahhorda ham kuzatiladi. Masalan, "Boshsiz odam", "Ming bir jon", "To'yda a'za" kabi.

Said Ahmad ijodiy metodi ayrim adiblarga o'xshash bo'lsa-da, uning adabiy uslubi mutlaqo o'zgacha. Said Ahmad ko'pincha asarlarida xarakterlar ziddiyatiga e'tibor qaratadi. U xoh insonlar o'rtasida bo'lsin, xoh inson va hayvon o'rtasida. Bunga misol tariqasida "Qorako'z Majnun" hikoyasidagi Bo'rixon va Qorako'z, "Qoplon" hikoyasida Qoplon va Qurbonboy xarakterlari zidlanadi. Yana bir muhim jihati shundaki, mavhumlikdan ko'ra aniqlikka ko'p e'tibor qaratadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Hikoyani tahlil qilishni kompozitsiyaning muhim unsurlaridan hisoblangan sarlavha va epigrafdan boshlaymiz. Asar nima uchun "Qorako'z Majnun" deya ataldi? "Majnun" so'zi izohli lug'atlarda "ishq, muhabbat yo'lida devona bo'lgan kimsa, savdoyi" deya izohlanadi. Hikoya nomini ilk bor ko'rgan kitobxon asar qandaydir vafodor it haqida ekanligini o'ylamasligi tabiiy, albatta. Shuning uchun ham hikoya sarlavhasining o'ziyoq o'quvchida katta qiziqish uyg'otadi. Hikoyadagi voqealar rivojida esa asarning nima uchun "Qorako'z Majnun" deb atalganligi oydinlashadi va kitobxonda hayrat uyg'otadi. Hikoya mazmuni va bosh g'oyasi Qur'oni Karimning Baqara surasi, 217-oyatdan keltirilgan «Sizlardan qaysi biringiz o'z dinidan qaytsa va shu kofirligicha o'lsa, bas, ana o'shalarning (qilgan savobli) amallari xabata (bekor) bo'lur, ular do'zax ahlidurlar va u yerda mangu qolurlar» va hadisi sharifdan keltirilgan «Jannatga kiradigan o'n nafar hayvondan biri bu "Ashobi kahf"ning vafodor itidir» epigrafi orqali namoyon bo'ladi. Ko'rinadiki, asarning bosh g'oyasi – bu e'tiqod masalasidir. "Qorako'z Majnun" hikoyasi o'zlikka, iymonga, e'tiqodga sadoqat, ma'naviy manqurtlik haqida yozilgan asardir. Hech bir shubhasiz, din insoniyat ma'naviy hayotining tarkibiy qismidir. E'tiqod ishonmoq tuyg'usidir. Ishonmoq tuyg'usi insoniyatning eng teran va eng go'zal ruhiy-ma'naviy ehtiyojlaridandir.

Hikoya ekspozitsiyasi ham asar g'oyasiga mos ravishda "...Saodat ayaning bomdod namozini o'qishi, joynamoz poyida uzoq o'tirishi, eri usta Turobga atab Qur'on tilovat qilishi, o'ris shaharlarida daydib qolib ketgan o'g'li Bo'rixonga insof tilab, baxti ochilmay guldek umri xazon bo'layotgan qizi Qumriga achinib, shu farishtaganing yo'lini och deb Allohga iltijo qilishi" bilan boshlanadi. Mashhur rus yozuvchisi A.P.Chexov hikoya janri xususiyatlari haqida "Qahramonlar ichidan faqat bittasini tanlaysan – ermi, xotinmi – uni ma'lum bir holatga solib, faqat uni tasvirlaysan, ta'kidlaysan, boshqalar esa unga fon vazifasini ado etgan holda asarning barcha joylariga sochiladi. Bosh qahramon go'yo oy, boshqa obrazlar oy atrofidagi mayda yulduzlar...", deya ta'rif berganda to'la ma'noda haq edi. Hikoya markazida Bo'rixon, qolganlar esa uning fojiasini ochishga ko'maklashadi. Hikoyada ifodalangan badiiy maqsad – insonning dindan chiqishi, o'z vatani, tilini unutishi ma'naviy o'lim bilan barobar ekanligini anglatishdir. Asar kompozitsiyasi ana shu maqsadga xizmat qildirilgan.

Hikoyada yozuvchining mahoratini belgilaydigan yana bir xususiyat borki, bu peyzaj (tabiat manzaralari) tasvirining qahramon holatiga uyg'un tarzda ifodalanishidir: "...Sentabr oyoqlab suvlar tiniqqan, ariq tublaridan bola-baqra tashlab yuborgan piyolami, choynak qopqog'imi, qoshiqmi shundoqqina ko'rinib turibdi. Qirg'oqlar zax tortib, ekin-tikin suv so'ramay qo'ygan palla". Ushbu jumlar orqali kuz fasli tasvirlangan, har bir fasl majoziy ma'noda inson umrining muayyan davriga qiyoslanadi: bahor – bolalik, yoz – yoshlik, kuz – qarilik, qish esa umrning so'ngi pallasi, o'limiga yaqin kunlar timsolidir. Shunga ko'ra, kuz asarning bosh qahramoni – Bo'rixon umrining kuz fasli kelganini anglatadi. Hikoyadagi Bo'rixon umri pallasi kuzda barglar sarg'ayib, yerga to'kilishi tasvirini yodga soladi.

Hikoyada Bo'rixonning onasi Saodat aya kam kuladigan, vafot etgan eri, armiyaga ketib qaytmagan, 15 yildan buyon xat ham yubormay qo'ygan o'g'li, ikki bor turmush qurib, farzand ko'rmay qaytib kelgan qizi Qumrixonni o'ylab, tushkunlikka tushib qolgan obrazdir. Yozuvchi "...kichkinagina, belida belbog'dek ikkita biri qora, biri jigarrang chizig'i bor it" – deya Qorako'z Majnunni ta'riflaydi. Hikoyaning boshidan oxirigacha yozuvchi Qorako'zni Saodat kampirga doimiy

hamrohlikda tasvirlaydi. Vafodor it Saodat kampir bilan deyarli bir xil kayfiyatda: xafa bo'lsa, xafa, xursand bo'lsa, xursand, kampir o'yga cho'msa, u ham o'y surgandek bir nafas tinchiydi.

Hikoyaning tuguni "Bir oydan beri o'g'li surunkasiga kampirning tushiga kiradi. Na yotishida, na turishida halovat bor. O'g'lini o'ylagani o'ylagan. Yoshi saksonga yaqinlashib, kuch-quvvatdan qola boshlagan, bolamni ko'rmay o'tib ketamanmi, deb kuyib-yonadi" tasviri asosida anglashiladi. Voqealar rivojida Bo'rixonning oltmish yettinchi yili armiyaga ketgani, harbiy xizmati tugagan bo'lsa ham, uyga qaytmagani o'sha yoqlarda uylanib, bola-chaqali bo'lib qolib ketgani ma'lum bo'ladi. Kampir qo'ni-qo'shnilarnikiga ham chiqmaydi. Uyda o'tiraverib qon bo'lib ketadi. Ba'zan kiyimboshlarini apil-tapil tugib – o'g'illari yo qizlaridan birinikiga o'tlanib qoladi. Qorako'z Majnun esa doimo kampirga hamroh bo'ladi. Kunlarning birida Saodat aya qizi Dilbarnikiga borib, uyga qaytganda, "...yillab qalbida qalashib yotgan g'uborlarini tarqatadigan, ko'ksida tog'dek bosib yotgan armonlarni ushatadigan bir yangilik kutib turardi". Mana shu yerdan asarning kulminatsion nuqtasi boshlanadi. "...Bo'rixon kelibdi, ya'ni kampirning «g'oyiblari hozir» bo'libdi. Bu yangilik «Saodat ayaning yillab qalbida qalashib yotgan g'uborlarini» tarqatishi, «ko'ksidan tog'dek bosib yotgan armonlarni» ushatishi lozim edi. Biroq voqelik o'zgacha tus oladi. Ona va bola uchrashuvi... Qiziq, bu jarayonda it negadir bezovta, u nimanidir sezadi; shu bois «notanish odamga g'ashlik qilib tinmay irillaydi». Ona bag'rida Bo'rixon begonaga o'xshaydi. Chunki «undan aroq va sham yoqilgan uyning hidi kelardi». Xursandchilikdagi ona avval bunga e'tibor bermaydi. Sekin-asta o'g'li Bo'rixonning ota-bobolari e'tiqod qilgan islom dinidan qaytib, boshqa dinni qabul qilgani ma'lum bo'ladi. Ona uchun din-diyonat, milliy-diniy qadriyatlar, el-yurtchilik har narsadan ustun turadi. Shuning uchun Bo'rixondan ko'ngli soviydi, uni yo'qlikka topshiradi; ketar mahali undan yuz o'giradi. Endi ona sahar namozida o'g'lini eslamay qo'yadi"²⁸. Garchand kampir sog'ingan bo'lsa ham, it Bo'rixondan ko'ra Saodat ayaga yaqindir. Said Ahmad asarda "1970-yilning kech kuzida bir musulmon bolasi dindan chiqdi", degan ayanchli jumlaning keltiradi. Mana shu jumla Bo'rixonning ma'naviy o'limga yuz tutishiga ishora edi. Yana peyzaj tasviriga e'tibor qaratsak, "kech kuz" iborasi qo'llanadi. Xo'sh, nega aynan kech kuzda? Chunki Bo'rixonning hayoti kuzdan keyin qish kelishi, ya'ni o'limga yaqinlashish davri kabi jismonan bo'lmasa-da, ma'naviy o'limga yuz tutish bilan barobar edi. O'z dini, e'tiqodi, Vatani, tilini unutishi uning ma'naviy olamini yakson qilgan edi. Buni adib hikoyada quyidagi so'zlar bilan ifodalaydi: "Bo'rixon uchun O'zbekistonda mustaqillik bo'ldimi, bo'lmadimi baribir edi. U o'zga yurtning fuqarosi, o'zga e'tiqodning sig'indisi edi. Tug'ilgan yurtga muhabbat tuyg'usi uni tark qilganiga ko'p yillar bo'lgan. Ona tili qadim-qadim zamonlardayoq unutilib ketgan Shumer tili qatori tumanlar orasida qolib ketgandi".

Bo'rixon ketganidan so'ng kampirning ko'ksida muz paydo bo'lib, vujud-vujudini qaqshatadi. Mana shu muz tasviri yana bir qancha o'rinlarda kelishi kuzatiladi: "Ilgari kampir ba'zi-ba'zida bu kiyimlarni hidlab yig'lardi. Endi ko'ksidagi muz uni yig'lashga qo'ymadi". Yoki "...Ishtaham yo'q, bolam. Ichim to'la muz. Tanamga asta tarqalyapti". Saodat aya ichidagi bu muzni farzand dog'idan qolgan sovuq tuyg'u deb olishimiz mumkin. Ammo bu o'lgan farzandning emas, o'zligini o'ldirgan farzandning dog'idir. Kampir jon berayotgan pallada ham bu muz erimaydi: "Kampir ichidagi muz erimay, osongina jon berdi".

Qorako'z Majnun esa kampir vafotidan so'ng, inson kabi ko'z yosh to'kadi. U kampirni tinimsiz izlaydi. Nihoyat, kampirning ovozi topib, quvonganida, bir miltiq o'qi itning hayotiga yakun yasaydi.

Hikoyada Qorako'zga Majnun nomining berilishi uning "marjabozlik" ka borishi bilan izohlanadi. Shu o'rinda adibning o'zga dindagi qizga uylanib, ham oilasidan, ham e'tiqodidan kechgan Bo'rixon va "marjabozlik"ka borsa-da, Saodat ayaga sodiq Qorako'zning bir-biriga naqadar mahorat bilan zidlaganining guvohi bo'lamiz.

Asar so'nggidagi Qorako'zning holati va o'limi hikoyaning yechimini tashkil etadi.

XULOSA

Hikoyada juda katta ma'no-mazmun jamlangan. "O'zbekona urf-odatlar qadri noloyiq bir farzandning qilmishlarini ko'rsatish orqali ta'kidlanadi. Insonning insoniyligini yo'qotishi fojia

²⁸ Eshqulova Farangiz Farhodovna "Said Ahmadning "Qorako'z Majnun" hikoyasida vafodor hayvon timsoli " nomli maqolasidan

ADABIYOTSHUNOSLIK

ekanligi, itning vafosi bir o'g'ilning ona ko'nglini vayron qilishiga nisbatan yuksak ma'naviy martabalarda turishi, hamma vaqt ulug'vorlik kasb etishini anglatiladi²⁹.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
2. Adabiyotimiz avtobiografiyasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1973.
3. Chexov A.P. O literature. – Moskva: Gixl, 1955.
4. Said Ahmad. Qorako'z Majnun. – Toshkent: Sharq, 1999.
5. Sabirdinov, A. (2019). Sketches to the novel "Night and day" by Chulpan. Scientific journal of the Fergana State University, 1(6), 119-120.
6. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of the banned period in the stories of Naim Karimov. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(11), 4-91.
7. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 03. – C. 245-249.

²⁹ Eshqulova Farangiz Farhodovna "Said Ahmadning "Qorako'z Majnun" hikoyasida vafodor hayvon timsoli " nomli maqolasidan